

Pedagogik qobiliyatlar va ularni rivojlantirish imkoniyatlari.

Qurbonova O'Imasoy Usmonovna,

Buxoro davlat Pedagogika instituti "Pedagogika" kafedrası dotsenti,

Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD).

Safarova Mavluda Sayfiddinovna,

Buxoro davlat Pedagogika instituti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish masalalari yoritib berilgan. Davlatimiz tomonidan belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda kadrlar masalasi va bunda ta'lim tizimining o'рни, bo'lajak mutaxassis kadrlarda pedagogic qobiliyatlarni rivojlantirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: didaktik qobiliyat, pedagogic qobiliyat, intellectual, texnologiya, kreativ, didaktik metodlar, metodik tavsiya.

Аннотация: В статье рассматривается вопросы развития педагогического мастерства в системе высшего образования. Освещены кадровый вопрос и роль системы образования в реализации целей, поставленных нашим государством, пути развития педагогического мастерства будущих специалистов.

Ключевые слова: дидактические способности, педагогические способности, интеллектуальные, технологические, творческие, дидактические методы, методические рекомендации.

Abstract: This article highlights the issues of pedagogical skills development in the higher education system. The issue of personnel and the role of the education system in the implementation of the goals set by our state, ways to develop pedagogical skills of future specialists are highlighted.

Key words: didactic ability, pedagogical ability, intellectual, technology, creative, didactic methods, methodical recommendation.

Kirish.

Oliy ta'lim mamlakatning ertangi taraqqiyotini belgilab beradigan, jamiyat hayotining barcha jabhasini rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim omil sanaladi. Dunyo miqyosida o'quv jarayonida olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida har tomonlama ijodkor va yetuk shaxslarni tarbiyalash masalasi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik tizimning tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligini ta'minlash yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, muayyan natijaga erishilmoqda. "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan oliy ta'limga jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish, modernizatsiyalash bilan bog'liq bo'lgan yuqori talablarni qo'ymoqda... » [1]. Ushbu yo'nalishda jumladan, pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali undagi bor imkoniyat va qobiliyatlarni yuzaga chiqarish, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Mulohaza.

Pedagogik faoliyatdagi muhim jihatlardan biri bu pedagogik qobiliyatdir. Pedagogik qobiliyat kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini anglatadi. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rnini ilmiy izohlab berishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlaganidek, pedagogik jarayon o'qituvchi-tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o'quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog'liq. Bola shaxsining rivojlanishida o'qituvchining roli nihoyatda muhim, chunki u ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda o'qituvchining pedagogik qobiliyatlariga nisbatan yuksak talab qo'yiladi, shuning uchun ijtimoiy-tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko'lamining ortishiga bevosita bog'liq [2].

Olim N.V.Kuzmina esa, pedagogik qobiliyatlarni gnostik (bilishga oid), proyektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan), konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratgan holda, ularning har biriga alohida ta'rif beradi. Shuningdek, olim pedagogik qobiliyatning muhim jihatlari qatoriga pedagogik kuzatuvchanlikni ham kiritadi, o'qituvchining bu xislati uning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari kabi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

T.I.Gavakov esa pedagogik qobiliyatlarni quyidagi tarzda guruhlariga ajratadi: a) obyekt (ta'lim oluvchilar)ni his eta olish; b) kommunikativ (kishilar bilan aloqa o'rnatish, samimiylik, muloqotchanlik); v) perseptiv (kasbiy yetuklik, empatiya, pedagogik intuitsiya); g) shaxs dinamizmi (irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishonitirish qobiliyati); d) emotsional barqarorlik (o'z-o'zini boshqara olish qobiliyati); e) kreativ (ijodiy ishga qobiliyatlilik).


Tadqiqotchi olim A.I.Shcherbakov ta'kidlashicha, pedagogik faoliyat o'qituvchi oldiga jiddiy talablar qo'yadigan murakkab hodisadir. Pedagogik faoliyat o'qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatga, mustahkam xarakterga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lishini taqozo qiladi. A.I.Shcherbakov o'qituvchi shaxsi oltita kasbiy-tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi (1-jadvalga qarang). Jumladan,

1-jadval. A.I.Shcherbakovning o'qituvchi shaxsi kasbiy-tarkibiy majmui.

t/r	o'qituvchi shaxsi kasbiy-tarkibiy qismlari
1.	Yuksak saviyadagi bilim va madaniyat
2.	Yo'nalishning aniq ifodalanganligi
3.	Yuksak axloqiy hislarning mavjudligi
4.	Yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik
5.	Qat'iy va yumshoq xarakter
6.	Pedagogik qobiliyatlar

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari to'g'risida fikr yuritadi. Ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarning rolini o'z tajribasiga tayanib sharhlab beradi. Pedagog kasbiy-pedagogik faoliyati muvaffaqiyati ko'p jihatdan maxsus pedagogik qobiliyatlarni egallaganligiga bog'liq, ekanligini ta'kidlaydi.

Olim F.N.Gonobolin esa, pedagogik qobiliyatlarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi (1-rasmga qarang):



1-rasm. F.N.Gonobolin ajratgan pedagogik qobiliyat turlari.

Maxsus qobiliyatlar o'qituvchining o'rgatuvchilik hamda tarbiyaviy faoliyatiga taaaluqlidir. O'qituvchining

o'qish, o'qitish va o'rgatishga doir qobiliyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin (2-jadval):

2-jadval. O'qituvchining o'qish, o'qitish va o'rgatishga doir qobiliyatlari.

t/r	O'qituvchining o'qish, o'qitish va o'rgatishga doir qobiliyatlari
1.	o'rganiladigan o'quv materialini muhim jihatlarini ko'ra olish va his eta olish qobiliyati
2.	o'quv materialini mustaqil tanlay olish, ta'limning samarali metodlari va maqbul vositalarini aniqlay olish
3.	o'quv materialini tushunarli bayon eta olish, uning barcha ta'lim oluvchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash
4.	ta'lim oluvchilarning individualligini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil eta olish qobiliyati
5.	o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati
6.	ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishini tashkil etish qobiliyati
7.	o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati
8.	o'zining shaxsiy tajribasini boshqalarga o'rgata olish qobiliyati
9.	mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati

Pedagogning tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan bog'liq pedagogik qobiliyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi (3-jadvalga qarang):

3-jadval. Pedagogning tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan aloqador pedagogik qobiliyatlar tizimi.

t/r	Pedagogning tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan aloqador pedagogik qobiliyatlari
1.	boshqa kishilarning ichki his-tuyg'ularini to'g'ri baholay olish, boshqalar haqida qayg'ura olish qobiliyati (empatiya)
2.	taqlid uchun namuna bo'lishga qobiliyatlilik

3.	tarbiyaviy jarayonda individual o'ziga xoslikni hisobga olishga qobiliyatlilik
4.	rag'bat va o'zaro bir-birini tushunish, muloqotning zarur uslubini tanlay olishga qobiliyatlilik
5.	o'ziga hurmat bilan munosabatda bo'lish, tarbiyalanuvchilar orasida obro' orttira olish qobiliyati

Pedagog olim I.P.Podlasiy pedagogik qobiliyatning tuzilishini quyidagi tarzda aniqlashtirgan (4-jadvalga qarang):

4-jadval. I.P.Podlasiy ajratgan pedagogik qobiliyatlar tizimi.

t/r	pedagogik qobiliyatning tuzilishi	Mazmuni
1.	tashkilotchilik	ta'lim oluvchilarni jipslashtirish, ular faoliyatini rejalashtirish, jamoaviy ishga jalb etish
2.	diagnostik	o'quv materialini tanlay olish, uni tushunarli, aniq, obrazli, ishonchli va tizimli bayon eta olish; o'quvchilarning bilishga qiziqishlari va intellektini rivojlantirishni rag'batlantirish, o'quv-biluv faolligini oshirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlik qobiliyati
3.	Perseptiv	ta'lim oluvchilarning ichki olamiga ta'sir ko'rsatish; ularning emotsional holatini xolis baholay olish
4.	kommunikativ	ta'lim oluvchilar hamda jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni o'rnata olish ko'nikmasi
5.	suggestiv (suggestiya - ishontirish)	o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsata olish
6.	tadqiqotchilikka doir	pedagogik jarayon va pedagogic vaziyatlarni anglash hamda obyektiv baholay olish ko'nikmasi
7.	ilmiy-bilishga doir	tanlangan ixtisoslikka doir belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallay olish qobiliyati
8.	Gnostic	obyekt, jarayon va o'z faoliyati natijalarini tadqiq etish hamda olingan natijalar asosida uni korreksiyalay olish qobiliyati

Olim A.Xoliqov esa, pedagogik qobiliyatning muhim bir qator asosiy sifatlari ajratib ko'rsatgan:

1. O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik takt (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi [3].

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

t/r	Pedagogik qobiliyatlar klassifikatsiyasi	Pedagogik qobiliyatlarning mazmun-mohiyati
1	Didaktik qobiliyat	bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olish, zarurat tug'ilganda o'quv materialini o'zgartira oladi, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.
2	Akademik qobiliyat	barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi.
3	Pertseptiv qobiliyat	qisqa fursatda o'quvchilar holatini idrok qila olish, bu o'quvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini yaxshi tushuna olish Bunday o'qituvchi kichik alomatlar, mayda tashqi belgilar asosida o'quvchi ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.
4	Tashkilotchilik qobiliyati	sinf-guruh yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Bu qobiliyat, avvalo, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtira olish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirira olish, shuningdek, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.
5	Nutq qobiliyati	ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq, shuningdek, o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi. Qobiliyatli o'qituvchining nutqi hamisha darsda o'quvchilarga qaratilgan, o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o'quvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.
6	Obro' orttira olish qobiliyati	o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosati, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Obro'ga ega bo'lish o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir majmuiga, uning irodaviy sifatleri (dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazo), shuningdek, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini his etish, bu ishonchni o'quvchilarga ham yetkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

7	Kommunikativ qobiliyat	muomala va muloqot o'rnatish, bolalarga aralashish qobiliyati, o'quvchilarga to'g'ri yondashish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligi.
8	Diagnostik tashxisga doir qobiliyatlar	insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarining oqibatini oldindan ko'ra olish, o'quvchining kelgusida qanday shaxs bo'lib yetishishi, tarbiyalanuvchilarda qanday fazilatlar taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, insonga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.
9	Diqqatni taqsimlash qobiliyati	bir vaqtning o'zida bir necha obyektga munosabat bildirish. O'quvchi, o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi muhimdir. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'quv materialini bayon qilish mazmunini va shaklini, o'z fikrini (yoki o'quvchi fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, intizom buzilishi hollarini e'tibordan qochirmaydi, o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish-turishini) ham kuzatib boradi.
10	Gnostik qobiliyat	tadqiqotga layoqatlilik bo'lib, o'z faoliyatini, uning natijalarini tekshirish hamda o'rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.
11	Konstruktiv qobiliyat	o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsini rivojlantirish, o'quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi

O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyatning o'ziga xos tizimi mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlar bilan farq qilinadi: a) asosiy xususiyatlar; b) tayanch xususiyatlar; v) yetakchi xususiyatlar; g) yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko'p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir. Pedagogik qobiliyatda o'qituvchining o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari asosiy rol o'ynaydi.

Xulosa. Ta'kidlash kerakki, qobiliyatli o'qituvchi o'quv materialini tushuntirish, o'quvchilarning o'zlashtirishi, bir oz nafas olib o'zlariga kelib olishlari, diqqat-e'tiborni bir joyga jamlashi, ayrim qo'zg'alishlarni "so'ndirib", boshqalarini esa faollashtirib,

ularning sustligini va loqaydligini yengishlari uchun zamin tayyorlash zarurligini nazarda tutishi lozim. Bunday o'qituvchi zarur sharoit yaratilmaguncha darsni boshlamaydi. Ba'zan yuqori ruhda boshlangan dars o'quvchilarda himoya qiluvchi tormozlanishni vujudga keltirib, miya faoliyatini tormozlaydi va o'qituvchining so'zlari o'quvchilar tomonidan yetarlicha idrok qilinmaydi. Didaktik qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ilganda qiyin o'quv materialini osonroq, murakkabrog'ini soddaroq, tushunish qiyin bo'lganini tushunarliroq qilib, o'quvchilarga moslashtirib yetkaza oladi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchidagi pedagogik qobiliyat muhim o'rin egallaydi. Pedagoglarda pedagogik qobiliyat yuqori, o'rtacha va past darajada bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>.
2. Axmetjanov M.M., Olimov Sh.Sh. Avezov S.S. Pedagogik mahorat. - Toshkent: "Lesson press" nashriyoti, 2018. 288 b.
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik-T.: Iqtisod-moliya, 2011. - 420 b.